



TURLI GENOTIPGA MANSUB BO‘LGAN AVLODLARNING GULLAR RASMI VA MUSTAHKAMLIGI

X. N. Imomov
tayanch doktorant

U. X. Aripov
professor Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi
ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya:

Ushbu maqolada turli genotipli juftlashdan olingan ko‘k rangli avlodlarning gullar rasmi va uning mustahkamligi hamda ushbu ko‘rsatkichlarning rang tekisligi bilan bog‘liqligi o‘rganilgan va xulosalar qilingan.

Kalit so‘zlar: ko‘k rangli qorako‘l qo‘zilar, seleksiya, juftlash, gullar rasmi, parallel-konsentrik, parallel-to‘g‘ri, aralash, gullar mustahkamligi, mustahkam, o‘rta, yetarsiz va bo‘sh hamda rang tekisligi, a‘lo, tekis, notekis.

Abstract:

In this article, the flower pattern and its stability of blue offspring obtained from mating with different genotypes, as well as the relationship of these indicators with the color plane, were studied and conclusions were made.

Keywords: blue black lambs, selection, mating, flower pattern, parallel-concentric, parallel-straight, mixed, flower firmness, firm, medium, insufficient and empty and color flatness, excellent, flat, uneven.

Mavzuning dolzarbligi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda qorako‘lchilik rivojlangan hududlarda qo‘ylar bosh sonini oshirish hamda ularning sifat va miqdor ko‘rsatkichlarini yuqori bo‘lishini taminlash asosiy vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Shunga e‘tiboran qorako‘lchilikda qo‘zilar teri yuzasida muhim bo‘lgan bir qancha gul ko‘rsatkichlar



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th May, 2025

mavjud bo‘lib, bulardan gul rasmi va uning mustahkamligiga ham alohida e‘tibor qaratiladi.

Demak, ushbu ko‘rsatkichlar talab darajasida bo‘lgan qo‘zilar ko‘paytirish uchun naslchilik ishlarida tanlash va juftlash ishlarini to‘g‘ri olib borish bilan yuqori natijalarga erishish mumkin.

Tadqiqotning maqsadi. Turli genotipli juftlashdan olingan ko‘k rangli avlodlarning gullar rasmi va uning mustahkamligi hamda ushbu ko‘rsatkichlarning rang tekisligi bilan bog‘liqligi o‘rganish tadqiqotning maqsadi hisoblanadi.

Tadqiqotni bajarish joyi va usullari. Tadqiqotlar Surxondaryo viloyati, Qumqo‘rg‘on tumani “Bobotog‘ suri qorako‘lchilik” MChJ xo‘jaligi sharoitidagi mavjud janubiy O‘zbekiston zavod tipi ko‘k qorako‘l qo‘zilarida bajarildi. Tajribada rang bo‘yicha geterogen ♂ko‘k afg‘on X ♀qora janubiy O‘zbekiston (tajriba) hamda ♂ko‘k janubiy O‘zbekiston X ♀qora janubiy O‘zbekiston (nazorat) guruhlarni juftlash natijasida olingan ko‘k avlodlarining gullar rasmi va uning mustahkamligi hamda ushbu ko‘rsatkichlarning rang tekisligi bilan bog‘liqligi o‘rganish ishlari amalga oshirildi. Avlodlarni baholashda S.Yu.Yusupov va boshqalarning “Qorako‘lchilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo‘zilar baholash (bonitirovka qilish) bo‘yicha qo‘llanma” (2015) hamda ma‘lumotlarga matematik ishlov berish variatsion statistika usullarida (N.A.Ploxinskiy, 1969) amalga oshirildi.

Avlodlarda gullar rasmi va uning mustahkamligi hamda ushbu ko‘rsatkichlarning rang tekisligi bilan bog‘liqligi. Qorako‘l qo‘zilar terisida gullarning mustahkamligi ularning sifatini baholashda eng muhim ko‘rsatkichlardan biridir. Terilarda gullar mustahkamligini teri ustidagi jingalakni qo‘l bilan asta-sekin sepalash yordamida aniqlash mumkin. Gullar mustahkamligi jun tolalarining uzunligiga, tig‘izligiga va jingalakni tuzilish sturukturasiga bog‘liq.

Bundan tashqari qorako‘l qo‘zilarining terisida jingalakni mustahkamligi sovluqlarning yoshiga, qo‘zilarining egiz va yakka tug‘ilishiga, uning vazniga va qaysi barra teri tipiga munosibligiga bog‘liq.

Qorako‘l qo‘zilar terisida gullar rasmi (naqshi), har xil gul tiplari va shakllarining o‘zaro ma‘lum tartibda teri sathida joylashishidan hosil bo‘ladi. Mustahkam terilar

International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th May, 2025

vujudga kelishida qalami gullarning uzunligi, eni, mustahkamligi, jun tolalarining sifati bilan bir qatorda qalami gullarining rasmi (naqshi) katta ahamiyatga ega. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda olingan ma'lumotlar quyidagi 1-jadval hamda 1-diagrammada umumlashtirildi.

1-jadval Olingan avlodlarda gullar rasmining namoyon bo'lishi va mustahkamligi

Guruhlar	n	Shundan, % ($X \pm S_x$)					
		Gullarning joylashish rasmi			Gullar mustahkamligi		
		parallel-konsentrik	parallel-to'g'ri	aralash	mustahkam	o'rta	bo'sh
Tajriba	297	39,7 $\pm$ 2,8	37,8 $\pm$ 2,8*	22,5 $\pm$ 2,4	31,3 $\pm$ 2,7	48,8 $\pm$ 2,9	19,9 $\pm$ 2,3
Nazorat	252	45,2 $\pm$ 3,1	28,6 $\pm$ 2,8*	26,2 $\pm$ 2,7	29,8 $\pm$ 2,8	46,4 $\pm$ 3,1	23,8 $\pm$ 2,6

* $P > 0,95$;

Jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, gullar rasmi bo'yicha olingan natijalarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, parallel-konsentrik holatda nazorat guruhi, tajriba guruhiga nisbatan 5,5 foiz yuqori, parallel-to'g'ri holatda esa tajriba guruhi, nazorat guruhiga nisbatan 9,2 foizga ustunlikka ega bo'ldi. (* $P > 0,95$); Aralash holatdagi joylashuvda esa 3,7 foizga nazorat guruhida yuqoriligi aniqlandi.


Xuddi shunday gullar mustahkamligida esa mustahkam va o'rta holatdagi ko'rinishda tajriba guruhi 80,1 foiz, nazorat guruhida esa 76,2 foizni tashkil etdi. Bu tegishlicha tajriba guruhi nazorat guruhiga nisbatan 3,9 foizga yuqoriligi aniqlandi. Gullar mustahkamligining bo'sh holatda bo'lishi esa nazorat guruhida (23,8 $\pm$ 2,6) tajriba guruhiga nisbatan (19,9 $\pm$ 2,3) ustunligi aniqlandi.

International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th May, 2025



Bonitirovka qilishda qorako'l qo'zilar terisi yuzasidagi gullarining mustahkamligiga katta e'tibor berilishi kerak, chunki bu xossani talab darajasida yaxshilab borish naslchilik ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yishga bog'liq.



1-rasm. Olingan avlodlarni baholash (bonitirovka) qilish jarayoni

Rang teksligi bilan gullar rasmi va uning mustahkamligining qay darajada bog'liqligini o'rganish maqsadida tadqiqotlar olib borilgan. Shu aytish kerakki, bu

International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th May, 2025

ko'rsatkichlarning bir-biri bilan bog'liqligi juda muhim hisoblanadi. Agarda maqsadga muvofiq hisoblangan a'lo va tekis darajadagi rang tekisligida ega bo'lgan avlodlarning gul ko'rsakichlari qay darajada bo'lishi tadqiqotlarimizda o'z aksini topdi. Hozirgi kun talabi asosan rang tekisligi yuqori bo'lgan yassi va qovurg'asimon gul tipi avlodlarni ko'paytirishga qaratilgan.

Shunga e'tiboran yuqoridagilarni inobatga olgan holda olingan natijalar 2-jadvalda keltirildi.

2-jadval

Olingan avlodlarning rang tekisligini gullar rasmi va uning mustahkamligi bilan bog'liqligi, % ($X \pm S_x$)

Guruhlar		n	Gul ko'rsatkichlari					
			Joylashish rasmi			Mustahkamligi		
			PK	PT	aralash	mustahkam	o'rta	bo'sh
Tajriba	a'lo	144	44,5 $\pm$ 4,1	55,5 $\pm$ 4,1	-	42,4 $\pm$ 4,1	57,6 $\pm$ 4,1	-
	tekis	112	48,2 $\pm$ 4,7*	28,6 $\pm$ 4,2	23,2 $\pm$ 3,9	28,6 $\pm$ 4,2	55,3 $\pm$ 4,7	16,1 $\pm$ 3,5
	notekis	41	4,9 $\pm$ 3,3	4,9 $\pm$ 3,3	90,2 $\pm$ 4,6	-	-	100
Nazorat	a'lo	108	49,1 $\pm$ 4,8	50,9 $\pm$ 4,8	-	39,8 $\pm$ 4,7	60,2 $\pm$ 4,7	-
	tekis	93	65,6 $\pm$ 4,9*	18,3 $\pm$ 4,0	16,1 $\pm$ 3,8	34,4 $\pm$ 4,9	55,9 $\pm$ 5,	9,7 $\pm$ 3,0
	notekis	51	3,9 $\pm$ 2,7	-	96,1 $\pm$ 2,7	-	3,9 $\pm$ 2,7	96,1 $\pm$ 2,7

* $P > 0,95$; PK-Parallel konsentrik, PT-Parallel to'g'ri

Jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, rang tekisligi bilan gullarning joylashish rasmi hamda mustahkamligining bir-biri bilan bog'liqligida a'lo rang tekisligiga ega bo'lgan avlodlarda gullarning joylashish rasmi bo'yicha parallel-konsentrik holatda tajriba guruhi nazorat guruhiga nisbatan 4,6 foizga past bo'lganligi kuzatildi. Parallel-to'g'ri joylashuvda esa tajriba guruhi nazorat guruhiga nisbatan 4,6 foizga yuqoriligi aniqlandi. Aralash holatdagi rasm ko'rinishida esa ikkala guruhda ham avlod uchramadi.

Rang tekisligining tekis holatda bo'lgan ko'rinishida esa tajriba guruhi avlodlari parallel-konsentrik joylashuvda nazorat guruhiga nisbatan 17,4 foizga pastligi aniqlandi. (* $P > 0,95$); Parallel-to'g'ri joylashuvda esa 10,3 foizga tajriba guruhi



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th May, 2025

nazorat guruhiga nisbatan ustunligi aniqlandi. Gullar joylashuvining aralash holatdagi ko‘rinishida ikkala guruhda ham avlodlar borligi aniqlandi.

Rang tekisligining notekis ko‘rinishida esa asosan aralash gul joylashuviga ega bo‘lgan avlodlar olinishi aniqlandi. Ikkala guruhda ham kam miqdorda gullarning parallel-konsentrik joylashuvdagi avlodlar uchradi. Parallel-to‘g‘ri ko‘rinishda esa faqat tajriba guruhida ($4,9 \pm 3,3$) avlodlar uchrab, nazorat guruhida esa bunday avlodlar olinmadi.

Xuddi shunday gul mustahkamligining rang tekisligi bilan bog‘liqligi o‘rganilganda a‘lo rang tekisligiga ega bo‘lgan avlodlarning gul mustahkamligi bo‘yicha asosan ikkala guruhda mustahkam va o‘rta holatda bo‘lishi aniqlandi. Bunda tajriba guruhining ($42,4 \pm 4,1$) mustahkam gul ko‘rinishi nazorat guruhiga ($39,8 \pm 4,7$) nisbatan 2,6 foizga yuqoriligi aniqlandi. O‘rta mustahkamlikda esa nazorat guruhi biroz yuqoriligini ko‘rishimiz mumkin. Gullarning mustahkamligi bo‘sh holatda bo‘lgan avlodlar ikkala guruhda ham uchramadi.

Rang tekisligining tekis tarqalgan avlodlarning gullar mustahkamligi bo‘yicha 5,8 foizga, o‘rta mustahkamlikda esa 2,6 foizga nazorat guruhida yuqoriligini ko‘rishimiz mumkin. Gullar mustahkamligining bo‘sh holatda bo‘lishi esa tajriba guruhidagi ($16,1 \pm 3,5$) avlodlarda nazorat guruhiga ($9,7 \pm 3,0$) nisbatan 6,4 foizga ko‘pligi aniqlandi.

Rang tekisligining notekis ko‘rinishida esa tajriba guruhidagi barcha avlodlar 100 foiz miqdorda gullarning mustahkamligi bo‘sh holatda bo‘lishi aniqlandi. Nazorat guruhida esa gullarining mustahkamligi o‘rta ($3,9 \pm 2,7$) va bo‘sh holatda bo‘lishi kuzatildi.

Xulosa

Olingan ma‘lumotlardan xulosa qilishimiz mumkinki, turli genotipli juftlashdan olingan tajriba va nazorat guruhi ko‘k rangli avlodlarning gullarining joylashish rasmi bo‘yicha parallel-konsentrik holatda nazorat guruhi tajriba guruhiga nisbatan 5,5 foiz yuqori, parallel-to‘g‘ri holatda esa tajriba guruhi nazorat guruhiga nisbatan 9,2 foizga ustunlikka ega bo‘ldi. (* $P > 0,95$); Gullar mustahkamligi bo‘yicha esa tajriba guruhida nazorat guruhiga nisbatan 3,9 foizga yaxshi natijaga erishildi.



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th May, 2025

Ushbu ko'rsatkichlarning rang tekisligining maqsadga muvofiq bo'lgan a'lo va tekis rang tekisligidagi avlodlarida gullar joylashish rasmi va mustahkamligida ikkala guruh orasida ma'lum miqdorda farqlanishlar borligini kuzatildi.

Shunga monand ravishda tajriba xo'jaligi sharoitida hamda ko'k rangda ixtisoslashgan boshqa xo'jaliklarda ham afg'on genotipiga mansub (tajriba guruh) qo'chqorlardan foydalanish samarali hisoblanib, olingan avlodlarni nasl uchun ko'paytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shunga e'tiboran ushu holatlarni seleksiya jarayonida e'tiborga olish lozim degan xulosaga kelish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. U.X.Aripov., X.N.Imomov Janubiy O'zbekiston qorako'l sovluqlarini seleksiyalashda ko'k afg'on genotipi qo'chqorlaridan foydalanishning samaradorligi maqola. Chorvachilik va naslchilik ishi. 2023. №3 14-16-b.
2. U.X.Aripov., X.N.Imomov Har xil genotipli juftlashdan olingan qorako'l avlodlarining sifat ko'rsatkichlari "Yaylov chorvachiligi va ipakchilikni rivojlantirishni hozirgi holati, an'anasi va yangi texnologiyalari" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 31-may 2023. 56-59-b.
3. U.X.Aripov., X.N.Imomov Turli genotipga mansub qorako'l qo'ylar mahsuldorligini irsiy baholash. Chorvachilik va naslchilik ishi. 2024. №5 18-19-b.
4. Ya.N.Nurillayev Qorako'lchilikda naslchilik ishlari va qo'zilarni bonitirovka qilish. Toshkent. 1986, 74-79-b.
5. S.Yu.Yusupov., A.Gaziyev va boshqalar. "Qorako'lchilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo'zilarni baholash (bonitirovka qilish) bo'yicha qo'llanma". Toshkent 2015, 22-b.
6. Н.А.Плохинский Руководство по биометрии для зоотехников. Москва 1969.